



**A'ZAM O'KTAMNING "TAVSIF" SHE'RIDA ADABIY PORTRET VA
RAMZLAR TALQINI**

Obidjonova Fotimaxon

*Farg'ona davlat universiteti
Filologiya fakulteti o'zbek tili
yo'nalishi 2-kurs talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada shoir A'zam O'ktamning "Tavsif" she'rida uchrovchi adabiy portret yaratish usullari tahlil qilinadi. She'rida Anvar Obidjon obrazining ijtimoiy va badiiy jihatlari hamda ramziy timsollar orqali ifodalanishi yoritiladi.

Kalit so'zlar: portret, ramz, she'r, A'zam O'ktam, chinor.

Zamonaviy o'zbek adabiyotida shaxs obrazini yaratishning o'ziga xos usullaridan biri bu adabiy portret janridir. Portret [1, 178] (frans. portrait-tasvir)-badiiy asarda kishining tashqi qiyofasi, siymosi, kiyim-kechagi va hokazolar tasviri. Adabiy portret shaxsiyatni tashqi ko'rinish orqali emas, balki ruhiy olam, ma'naviy qadriyat va ijodiy yondashuvni badiiy vositalar orqali ochishga xizmat qiladi. A'zam O'ktamning "Tavsif" she'ri ham ana shunday namunalardan biri bo'lib, unda O'zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjon shaxsiyati badiiy portret sifatida gavdalantiriladi:

Yashin urgan chinordek

Yurak Anvar Obidjon.
Sochi bevaqt oqargan
Go'dak Anvar Obidjon.
Bilmas, lekin bu yurtga
Kerak Anvar Obidjon
Botir el keluridan
Darak Anvar Obidjon
Ammo qaytib tug'ilmas
Bo'lak Anvar Obidjon

She'r [2, 117] davomida A'zam O'ktam portret yaratishda tashqi shaklni emas, balki ichki ruhiy olamni tasvirlashga alohida e'tibor qaratadi. Demak, "Tavsif" she'rida Anvar Obidjonning timsoli shoirning poetik tasavvurlari orqali qayta yaratiladi.

She'r "Yashin urgan chinordek yurak Anvar Obidjon" misrasi bilan boshlanadi. "Chinor" — qadimiy timsol bo'lib, u hayot, barhayotlik, ildizga sodiqlik va milliy barqarorlik ramzidir. Ammo "yashin urgan" so'z birikmasi



bu barqarorlikka sinov, azob va sadoqat orqali bardavomlik ma'nosini qo'shadi. Bu tasvir Anvar Obidjonning hayot yo'lida uchragan sinovlarga qaramay, bardavom ijodkor sifatida ko'rsatadi.

Keyingi misrada "sochi bevaqt oqargan, go'dak Anvar Obidjon" deyiladi. "Soch" — vaqt, hayot, tajriba ramzi; oqargan soch — og'ir hayot, ma'naviy og'riq timsoli. Shu bilan birga "go'dak" so'zi paradoksal tarzda qo'llanib, beg'uborlik, samimiyat va bolalik ruhini bildiradi. Bu antitezali parallelizm Anvar Obidjon shaxsida ikki qutb — tajriba va beg'uborlik, donolik va soddalikni uyg'unlashtiradi.

"Bilmas, lekin bu yurtida kerak Anvar Obidjon" misrasi esa shoirni ijtimoiy zarurat darajasiga ko'taradi. "Kerak" so'zi — bu yurt uchun, millat uchun ruhiy tayanch, ma'naviy zarurat ifodasidir. She'rda shoir shaxsiy timsol emas, xalq ruhining bir parchasiga aylanadi.

Keyingi misrada "Botir el keluridan darak Anvar Obidjon" deyiladi. Bu yerda "darak" so'zi — bashorat, umid, xalqning kelajakka ishonchi ramzidir. Anvar Obidjon obrazi bu yerda "botir el" kelajagining belgisi, ma'naviy yetakchi sifatida ko'rsatiladi. "Darak" timsoli shoirning o'z davrida elga yo'l ko'rsatgan, so'z qudrati bilan xalq ruhiyatini uyg'otgan ijodkor sifatida baholanayotganini bildiradi.

Yakuniy misrada esa "Ammo qaytib tug'ilmas bo'lak Anvar Obidjon" deyiladi. "Bo'lak" so'zi bu yerda "noyob, tengsiz, betakror" ma'nolarida qo'llanadi. Shu tarzda she'r individual obrazni umumlashma falsafiy darajaga olib chiqadi: Anvar Obidjon shaxsiy emas, balki o'zbek adabiyotining yagona va takrorlanmas ruhi sifatida talqin qilinadi.

Professor H.Hamroyevaning fikricha, "Yashin urgan chinordek, Yurak Anvar Obidjon", deb yozganida A'zam O'ktam haq edi. Anvar Obidjon yashin urgan chinordek majruh yuragini yerga berib, kunni tunga, tunni kunga ulab mehnat qildi, o'zbek bolalar adabiyotini butunlay yangiladi, jahon adabiyoti bilan bo'ylashadigan adabiyot yaratdi, baquvvat yurakli odamlar e'tiborsiz qaraydigan ezgu ishlarni qildi: yetimlarning, ko'ngli yarimlarning boshini siladi. Uning "yashin urgan chinordek" tilkalangan yuragini So'z ishq, yaratq ishq ko'tarib yurdi." [10, 65]

Darhaqiqat, u "yashin urgan chinordek" yuragi bilan mudom so'z olamida, ezgulik olamida yashadi. Chinorning chinorligi ayniqsa qulaganida bilinadi, deydi xalqimiz. "Yashin urgan" yuragi bilan bor iste'dodini, zakovatini adabiyotga baxshida etdi.

She'ring kompozitsion tuzilishida A'zam O'ktam o'ziga xos poetik usullardan foydalanilganligi seziladi. She'ring kompozitsiyasi gradatsiya

[3, 510] (bosqichma-bosqich kuchayish) va parallelizm[3, 217] (takroriy sintaktik tuzilma) asosida qurilgan. Har bir bandda Anvar Obidjon obrazining



yangi qatlami ochiladi: avval jismoniy, keyin ruhiy, so'ng ijtimoiy va nihoyat falsafiy darajada. She'rdagi avval Anvar Obidjonning shaxsiyati ijtimoiy va badiiy qirralar orqali bosqichma-bosqich ochib boriladi. Bunda har bir misra oldingisini to'ldirib, obrazning yanada kengroq qamrovda talqin etilishiga xizmat qiladi. Yakunda esa "bo'lak" ramzi vositasida shoir obraziga umumlashtiruvchi falsafiy mazmun yuklanadi. Bu ramz portretni shaxsiy tavsif doirasidan chiqarib, uni milliy adabiy ongda betakrorlik va yagonalik timsoli darajasiga ko'taradi.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, har satr oxirida shoir ismining epifora tarzida takrorlanishi markaziy obrazni semantik markazga aylantiradi va she'rga ritmik yaxlitlik beradi. Shu bois "Tavsif" she'rini an'anaviy portret janrining oddiy namunasi deb emas, balki ramziy-falsafiy daraja dagi poetik madh sifatida baholash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, A'zam O'ktamning "Tavsif" she'ri shoir Anvar Obidjon shaxsiyatini adabiy portret sifatida yuksak darajada talqin etadi. Ramzlar tizimi she'rga chuqur falsafiy ma'no yuklab, portretni oddiy tavsif emas, balki milliy adabiy ongda yodgorlik darajasiga ko'taradi. Shu bois "Tavsif" she'ri nafaqat adabiy portret yaratish, balki zamonaviy o'zbek she'riyatida ramz va timsollarni yuksak darajada ifodalash namunasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. "O'zbekiston". T.: 2002.
2. O'ktam A. Osmon yaqin. "Abu matbuot-konsalt". T.: 2011.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati.-T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti"
4. O'ktam A. Kuzatish: She'rlar. – Toshkent: "Yosh gvardiya", 1990.
5. O'ktam A. Qirqinchi bahor: She'rlar. – Toshkent: "Qatortol-Kamolot", 1999.
6. O'ktam A. Osmon yaqin...: She'rlar. – Toshkent: "Abu Matbuot-konsalt", 2011.
7. O'ktam A. Sahar vaqti yurak yig'lar...: She'rlar. Toshkent: Movarounnahr, 2014.